

QADRIYATLAR ASOSIDA TALABALARNI MUSTAQIL HAYOTDA YASHASH YO'LLARINI O'RGATISH

Satimov Xabibulla To'lqinovich

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada qadriyatlar so'rovnomasi yordamida aniqlangan ijtimoiy qadriyatlar bo'yicha yigitlar va qizlar o'rtasida farqlar mavjudligi o'rganildi.

Kalit so'zlar: Qadriyatlar, emotsional intellekt, ijtimoiy qadriyatlar, yigitlar, qizlar oila, ijtimoiy muhit, yoshlar ongi, ijtimoiy tasavurlar, ijtimoiy shart-sharoit, guruh, tadqiq qilish.

ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ТОМУ, КАК ЖИТЬ САМОСТОЯТЕЛЬНО, ОСНОВЫВАЯСЬ НА ЦЕННОСТЯХ

Satimov Xabibulla Tulkinovich

Исследователь Наманганского государственного университета

Аннотация. В статье изучалось, существуют ли различия между парнями и девушками в отношении социальных ценностей, выявленных с помощью опросника ценностей.

Ключевые слова: ценности, эмоциональный интеллект, социальные ценности, парни, девушки семья, социальная среда, молодежное сознание, социальные представления, социальные условия, группа, исследование.

TEACHING STUDENTS WAYS TO LIVE AN INDEPENDENT LIFE ON THE BASIS OF VALUES

Satimov Xabibulla Tulkinovich

Namangan State University research fellow

Annotation. The article explored the existence of differences between young men and girls in social values identified using a Values Survey.

Keywords: values, emotional intelligence, social values, guys, girls family, social environment, youth consciousness, social institutions, social conditions, Group, Research.

Kirish. Ma'lumki, madaniyat, san'at, musiqa san'ati asoslari taraqqiyoti O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi

bo'yicha 2017- 2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining negizlaridan birini tashkil qiladi . Mazkur hujjat mamlakatimiz taraqqiyoti uchun dastur-ul amal bo'lmoqda, hujjatning to'rtinchi ustuvor yo'nalishida madaniyat va san'at sohalarini yanada taraqqiy ettirish, beshinchi ustuvor yo'nalishida jamiyatni turli madaniy tahdidlardan muhofaza qilish vazifalari belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizning ijodkor ziyolilari bilan 2017-yil 3-avgustda o'tkazgan uchrashuvida: "Inson qalbini, uning dard-u intilishlari, vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb biladigan siz muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va nechog'li sharafliligi ekanligi barchamizga ma'lum", - deb yurtimizda o'zining noyob va takrorlanmas iste'dodi, mahoratini xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga davlat taraqqiyoti yo'lida safarbar etgan, inson qalbining muhandislari bo'lgan ijodkor ziyolilariga doimo g'amxo'rlik masalasi O'zbekistonda bugun olib borilayotgan davlat siyosatida alohida o'rin egallashini ta'kidlab o'tdilar.

Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlari uzluksiz ta'lim tizimiga bevosita ta'sirini ko'rsatib, o'z navbatida zamonaviy ta'lim muhitining muhim tavsifi hamda shaxs iqtidori va mahoratini yuzaga chiqarish, ta'lim oluvchi yoshlarning ijodkorlik faoliyatiga ijobiy jihatdan yondashib uni yanada takomillashtirish, uning tarkibiy qismlari jumladan, funktsional va konseptual muammolari yechimini ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Kundan-kunga yangi innovatsion g'oyalar, pedagogik texnologiyalar, usullar, metodlar odimlab bormoqda. Albatta, sohani zamon bilan hamnafas holatdaligini ta'minlash – biz mutaxassislarning vazifasi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bugungi kunda jahonda ta'limga kompetentli yondashuv asosida kadrning raqobatbardoshligini oshirish, o'quvchi-yoshlarning ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish orqali o'quvchilarda ijodiy ta'lim jarayonining zamonaviy ko'rinishini yaratish, ularda ijodiy faoliyat turlariga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish, shuningdek, ta'lim tizimining sifatligini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda[2;6].

Talaba yoshlar o'rtasida ma'naviy taraqqiyotga erishish, madaniyat va san'at asarlariga bo'lgan qiziqishni oshirish, ajdodlarimizdan me'ros bo'lib kelayotgan nomoddiy merosimiz sanalmish an'analarni targ'ib qilish, yosh iqtidor egalarining mustaqillik g'oyalariga sadoqat va fidoiylik ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi san'at turlarini yaratish hamda o'quvchilarda ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish mutaxassislarning, pedagoglarning faoliyati davomida oldiga qo'ygan muhim maqsadlaridir[3;5].

Musiqiy ijodkorlik, pedagogik va psixologik qobiliyat qanday ta'riflanganligini, o'quvchilarda ijodkorlik va musiqa ortasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqligini aniqlashshular jumlasidandir. Ushbu doirada bir necha atamalar, ularning ta'riflari o'rganildi. Jumladan, dastlabkisi kompetensiyalar bu - ko'p yo'nalishli tushuncha bo'lib, u maktab ta'lim bo'g'inida bolaning muvaffaqiyatli o'qishi va rivojlanishini, shuningdek, uning musiqa madaniyati fanining o'qitilishi davomidagi muvaffaqiyatini shartlovchi bilim, malaka, mahorat, ko'nikma, milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi yo'l-yo'riqlar va xulq-atvor ko'nikmalarining jamlanmasini namoyon qiladi[7].

Kompetensiyalarning tarkibiy elementlariga quyidagilar kiradi:

Bilim bu - kishida mavjud bo'lgan axborotlar hajmidir. Pedagogikada bilim – borliq, atrof-muhit, jumladan, insonlarni o'rganish faoliyati jarayonining natijasi hisoblanib, u inson ongida mos holdagi tasavur, tushuncha va fikr shakllarida ifodalanadi[1].

Qadriyatlar – bu insonning hayotda erishishi lozim bo'lgan, xohlayotgan maqsadlarga umumiy ishonchidir. Ular harakatlarni motivatsiyalaydi, shuningdek, qanday qilib harakat qilish lozimligi to'g'risidagi masalani hal qilishda ko'rsatmali tamoyillar bo'lib ham xizmat qiladi. Qadriyatlar ham o'zining, ham boshqalarning harakatlarini baholash uchun, fikrlar, pozitsiyalar va xulq-atvorni asoslash uchun, muqobil variantlarda qaror qabul qilish uchun, boshqa kishilarning xulq-atvorini rejalashtirish va ularga ta'sir o'tkazishga intilishda mezonlarni taqdim etadi[3].

Natija. Qadriyatlar va emotsional intellekt o'rtasidagi o'zaro aloqadorligi oliy ta'lim muassasasi talabalarida o'rganilganda, qizlar va yigitlar qadriyatlari o'rtasida quyidagicha tafovutlar kuzatildi. Sh.Shvarsning qadriyatlar so'rovnomasi ikki toifadagi qadriyatlarni, ya'ni ijtimoiy va individual qadriyatlarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, dastlab tadqiqot ishtirokchilarida ijtimoiy qadriyatlar namoyon bo'lishining jins tafovutlarni o'rganish natijalari tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

Sh.Shvarsning qadriyatlar so'rovnomasi bo'yicha ijtimoiy qadriyatlar namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezon)

Ko'rsatkich	O'rtacha ranglar		U	p
	Yigitlar (N=180)	Qizlar (N=295)		
Konformlik	219,6	249,2	2323 4,5	0,02 2*
An'analar, odatlar	221,1	248,3	2351 0	0,03 6*
Mehribonlik	228,3	243,9	2481 2	0,23 0

Universallik	211,0	254,5	2169	0,00
Mustaqil fakrlash	221,4	248,1	2356 2	0,03 9*
Ragʻbatlantirish	244,2	234,2	2543 0,5	0,43 8
Gedonizm	265,1	221,5	2167 6,5	0,00 1***
Yutuqlar	232,8	241,2	2561 1	0,51 6
Kuch, hokimlik, obroʻ	236,6	238,9	2629 3	0,85 9
Xavfsizlik	210,2	255,0	2154 1	0,00 1***

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$, *** - $p < 0,001$

Jins tahlilida quyidagi ishonch darajasidagi farqlar mavjudligi aniqlandi. Konformlik shkalasi boʻyicha ishonch darajasidagi farqlar mavjudligi aniqlandi ($U=23234,5$; $p < 0,05$). Konformlik shkalasi, asosan, oʻzini har qanday vaziyatda qulay his qilish, boshqalarga zarar yetkazishdan qochish, itoatkorlik, oʻzini tuta bilish va intizom, xushmuomalalik va odob, ota-onalar va kattalarni hurmat qilish xislatlarini aks ettiradi. Aynan qiz bolalarda konformlikning yuqori chiqqanligi ularni boshqalar bilan nizolarga bormasligini koʻrsatadi, ular yigitlarga nisbatan oʻzlarini tuta bilishlari, intizomliliklari bilan ajralib turar ekanlar. Ehtimol, bunda ularning hayotdagi asosiy jihatlari aks etgan boʻlsa, ajab emas.

Anʼanalar va odatlar shkalasi boʻyicha natijalar tahlil qilinganda yigitlar va qizlarning natijalarida ishonch darajasidagi farqlar mavjudligi kuzatildi ($U=23510$; $p < 0,05$). Maʼlumki, har bir guruhda oʻziga xos boʻlgan ramzlar va marosimlar mavjud, bular guruhning tajribasi asosida belgilanadi hamda anʼanalar va urf-odatlar shaklida mustahkamlanadi. Yuqorida keltirilgan raqamlarning guvohlik berishicha, qizlarda anʼanaviy xatti-harakatlar va oʻzini tutish usullari guruh birdamligining ramzi hisoblanadi va bu ularda umumiy qadriyatlarning yaqqol ifodalanishini bildirib, ayol sifatida hayotiy muvaffaqiyatlarga erishishlarining kafolatiga aylanadi. Qizlar yigitlarga nisbatan diniy marosimlar, eʼtiqod va xulq-atvor meʼyorlari koʻrinishiga koʻproq ega boʻlar ekanlar. Qizlarda madaniyatda mavjud boʻlgan urf-odatlar va gʻoyalarni hurmat qilish, qabul qilish va ularga rioya qilish holatlari juda yaxshi saqlanib qolar ekan, aynan qizlardagi anʼanalarga sodiqlik ularda urf-odatlarni hurmat qilish, moʻmin-qobillik, taqvodorlik, oʻz nasibasiga qanoat qilish, meʼyorida yashashga intilish kabi xislatlarni shakllantirishi mumkin ekan.


Mehribonlik shkalasini tahlil qilganimizda ularda ishonch darajasidagi farqlar mavjud emasligini kuzatish mumkin. Universallik shkalasi bo'yicha esa yigitlar va qizlar o'rtasida ishonch darajasidagi farqlar mavjudligini kuzatdik ($U=21691$; $p<0,01$). Universallik shkalasi mohiyatan boshqalarni tushunish, murosai madora, jamiyat va tabiatning ezguligi uchun faoliyat ko'rsatib, ularni himoya qilishni anglatadi. Universallik qadriyatining motivatsion maqsadlari, odamlar o'z muhitidan tashqaridagilar bilan muloqot qilganda yoki boshlang'ich guruhini kengaytirganda oshkoraliqi sezilib qoladigan guruhlar va shaxslarning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqishlari mumkin ekan. Aynan qizlarda universallik shkalasi yigitlarga nisbatan yuqori chiqqanligi ularning har qanday vaziyatga boshqalarni tushunishga intilishlari bilan izohlanishi mumkin.

Mustaqil fikrlash shkalasida ham jins tafovutlari mavjudligini aniq kuzatishganligini ko'rish mumkin ($U=21691$; $p<0,01$). Qizlarda yigitlarga nisbatan maqsadli fikrlashda va xatti-harakatlarini erkin tanlashda mustaqillik jihatlari yuqori ekan. Demak, tadqiqotimiz doirasida aksariyat o'zbek millatiga mansub sinaluvchilar bo'lganligini inobatga olsak, aynan qizlarda bu natijaning yuqori ekanligi bizni bir oz hayratda qoldirdi. Biroq bu shkala o'zini va o'z organizmini nazorat qilish bilan bog'liqligi ko'rsatilganligi sababli ham qiz bolalarda mustaqillik shkalasi yuqori chiqqan bo'lsa ajab emas, aynan o'zini nazorat qilishda yigitlar qizlarga nisbatan pastroq ekanliklari kuzatildi.

Gedonizm shkalasi bo'yicha esa yigitlarning natijalari qizlarga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi ($U=21676$; $p<0,01$). Sh.Shvarsning fikricha, ushbu turdagi motivatsion maqsad lazzatlanish yoki shahvoniy lazzatlanish deb ta'riflanadi, yigitlarda bu natijaning yuqori chiqqanligi ularga xos bo'lgan biologik ehtiyojlarni qondirishga moyillikning kuchli ifodalanganligi bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin.

Xavfsizlik shkalasi bo'yicha individual qadriyatlarning namoyon bo'lishida ham ishonch darajasidagi farqlar mavjudligi aniqlandi ($U=21541$; $p<0,01$). Xavfsizlik shkalasi asosan ijtimoiy o'zaro munosabatlar va shaxsning barqarorligi, xotirjamligi orasidagi uyg'unlikni ifoda etadi. Aynan qizlar orasida xavfsizlik ko'rsatgichining yuqori darajada namoyon bo'lishi ularda o'zlarini asrashga ko'proq moyillik mavjudligida namoyon bo'lishi mumkin. Bu natijalar ko'rgazmali tarzda 1-rasmda yaqqol o'z ifodasini topgan.

Shaxsda ustuvor qadriyat sifatida moddiy ta'minganlikning tarkib topishi natijasida shaxslararo munosabat va professional mehnat faoliyatida "insoniylik" omillarini inobatga olmaslik holatlarining vujudga kelishi - shaxslararo nizolar yuzaga kelishi ehtimolini oshiruvchi omillar bo'lib xizmat qiladi.



250
240
230
220
210

200
Konformlik
An'analar va odatlar
Mehribonlik
Universallik
Mustaqil fikrlash
Rag'batlanish
Gedonizm
Yutuqlar
Kuch, hokimlik
Xayfsizlik

■ Yigitlar (N=180) □ Qizlar (N=295)

1-rasm. Sh.Shvarsning qadriyatlar so'rovnomasi bo'yicha ijtimoiy qadriyatlar namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar (o'rtacha ranglar hisobida).

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlar tahlilidan kelib chiqib, bo'lajak kadrlarda emotsional intellekt va shaxs qadriyatlarining aloqadorlik ko'rsatkichlarini tadqiq etish orqali biologik ehtiyojlarini inobatga olgan holda mehnat, o'quv faoliyatida o'zaro tushunish, empatiya, tolerantlik, ustoz-shogird an'analarini rivojlantirish mumkin.

Biologik omillarning talabalar emotsional intellektining axborot funksiyalariga ta'sirida quyidagicha psixologik jarayonlar aniqlandi:

1. Talabalar o'quv faoliyatida ma'lumotlarni qabul qilish, tahlil qilish va qayta ishlashida kognitiv jarayonlar uyg'unligi olib keldi.
2. Ma'lumotlarning ahamiyatlilik darajasini baholash orqali yangilikka intilish xususiyatini namoyon bo'lishini ta'minladi.
3. Talabalarning o'quv jarayonida yangilikka intilishi xususiyati faoliyat samaradorligiga erishishga yo'naltirdi.

Tadqiqot natijalarining umumlashtirgan holda emotsional intellekt bilan biologik omillarning emotsional intellektning regulyativ funksiyasiga bevosita ta'siri talabalar faoliyatida hissiy barqarorlikni kamol toptirib, biologik omillarning emotsional intellektning axborot funksiyalariga bevosita ta'siri o'quv faoliyatida yangilikka intilish, faoliyat samaradorligiga erishish, natijalarga haqqoniy yondashish xususiyatlarini shakllantirar ekan. Talabalarda hissiy barqarorlik va o'quv faoliyatida yangilikka intilish, samaradorlikka erishish, natijalarga haqqoniy yondashish xususiyatlarining tarkib toptirilishi, talabalar ratsional bilishining rivojlanishini ta'minladi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turganidek, Sh.Shvarsning qadriyatlar so'rovnomasi yordamida aniqlangan ijtimoiy qadriyatlar bo'yicha yigitlar va qizlar o'rtasida farqlar mavjudligi aniqlandi.

Xulosa. Oila muhitida amalga oshiriladigan muloqot, oila a'zolari o'rtasida kundalik, maishiy muammolar yuzasidan amalga oshiriladigan muomala hisoblanadi.

Chunki inson xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ustanovkalarining shakllanishida radio, televideniye, gazeta, jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotlarning qiymatini e’tirof etgan holda shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan ta’sir, inson yuzi va ko‘ziga qarab turib aytiladigan ba’mani so‘z va his-tuyg‘ularning o‘rni beqiyos. Shuning uchun ham zarur bir fikrni tushuntirish lozim bo‘lsa, ota-ona ham farzandining yuzini o‘ziga qaratib olib, yuz qiyofasi va ko‘zdagi samimiyat bilan, psixologik jihatdan tahlil etilganda, ekstralingvistik hamda paralingvistik vositalar yordamida fikrni uqtira boshlaydi va aynan shunday muloqot samaralidir. Bunday ta’sir ko‘proq emotsional-psixologik jihatdan ta’sirchan onalar va momolar muomalasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Oila va uni bevosita o‘rab turgan ijtimoiy muhit ta’sirida yoshlar ongi, ijtimoiy tasavurlari tizimiga ta’sir yetkazuvchi omillar ko‘p va serqirra bo‘lib, ularning yo‘nalishlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini har bir alohida ijtimoiy shart-sharoitda, birlamchi guruh muhitida tadqiq qilish ilmiy izlanishlar uchun katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5313-son Farmoni. 2018 yil 25 yanvar.
2. Raximov Sh.N., Maxkamova Sh.R. Musiqa ta’limi vositasida o‘quvchi- yoshlarni ilmiy ijodga intilishini shakllantirish // Musiqa san’ati yo‘nalishida professional kadrlar tayyorlash, yangi texnologiyalar va ijrochilik omillari.
3. Andreyeva I.N. Vzaimosvyaz emotsionalnogo intellekta i tezaurusa emotsionalnix perejivaniy v yunosheskom vozraste/ I.N.Andreyeva// Psixologiya i sovremennoye obshestvo: vzaimodeystviye kak put vzaimorazvitiya: materialy mejdunar. nauch.-prakt. konf., Sankt-Peterburg, 28 – 29 apr. 2006 g. / SPbIUIP; redkol.: V.N. Dejkin [i dr.]. – SPb.,2006. – Ch. 1. – S. 17 – 21.
4. Andreyeva I.N. Ponyatiye i struktura emotsionalnogo intellekta/ I.N.Andreyeva// Sotsialno-psixologicheskiye problemi mentalnosti: materialy 6-y mejdunar. nauch.prakt. konf., Smolensk, 26 – 27 noyab.2004 g.: v 2-x ch.; redkol.: V.A.Sonin [i dr.]. – Smolensk: SGPU, 2004. –Ch. 1. – S. 22 – 26.
5. Rahmonova Z.N. Qadriyatlar va emotsional intellekt o‘zaro aloqadorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Diss – T., 2022. –B . 90-98.
6. Umarova M.M. O‘smirlarda oilaviy va qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy- psixologik shart sharoitliri. – T., 2004. - B. 94-97.
7. Xalimmetova R. Pedagog kasbining asosiy omillari, fazilatlar va kadrlar tanlash modeli // Uzluksiz ta’lim. –T., 2002. – № 4. – B. 22-31.